



## **FITRAT TAFAKKURI – ORQADA QOLGAN XALQNI UYG‘OTGAN VIZIONER KUCH**

**Ahmadova Mohinur Anvar qizi**  
**Buxoro davlat universiteti**  
**Filologiya fakulteti 1-kurs talabasi**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada kelajakparast, innovator, ufqni keng ko‘ra oladigan rahbar Abdurauf Fitrat shaxsiyati an‘anaviy yondashuvlardan farqli ravishda vizioner mutafakkir, ya‘ni o‘z zamonidan ilgari ketgan, xalq tafakkurini yangilashga intilgan intellektual kuch sifatida tahlil qilinadi. Uning adabiy va ijtimoiy asarlari oddiy ma‘rifatparvarlik doirasidan chiqib, ong islohoti, fikr inqilobi kabi chuqur g‘oyalarni ilgari surgan. Maqolada Jadidning zamonaviy qadriyatlar bilan uyg‘un fikrlari, matnlaridagi yashirin diskurslar hamda bugungi o‘zbek ziyolisi uchun namunaviy jihatlari ilmiy asosda yoritiladi. Fitrat endilikda faqat tarixiy shaxs emas – u zamonlararo fikrlar suhbatida haligacha faol ishtirok etayotgan fikr startapi asoschisidir.

**Kalit so‘zlar:** Fitrat, jadid adabiyoti, uyg‘onish, “Munozara” ,qahramon, g‘oya, ichki ozodlik, tanqidiy tafakkur.

**Abstract:** This article analyzes the personality of Abdurauf Fitrat not through traditional approaches, but as a visionary thinker an intellectual force ahead of his time, committed to renewing the collective consciousness of his people. Fitrat’s literary and social works transcend mere enlightenment ideals, advocating for deep concepts such as the reformation of consciousness and a revolution in thinking. The paper explores, through a scholarly lens, how his ideas resonate with modern values, uncovers hidden discourses in his texts, and highlights qualities that serve as exemplary for today’s Uzbek intelligentsia. Fitrat is no longer just a historical figure – he is the founder of an intellectual startup, still actively engaging in a cross-temporal dialogue of ideas.

**Keywords:** Nature, Jadid literature, revival, "Debate", hero, idea, inner freedom, critical thinking.

**Kirish.** Odatda tarix sahnasida o‘z ismi bilan qolgan shaxslar ko‘p. Ammo bunday iste‘dodlar orasida shunday siymolar ham borki, ular nomi nafaqat tarixda, balki tafakkur shaklida, til ohangida, hatto millat xotirasining ichki qatlamlarida yashab qoladi. Abdurauf Fitrat ana shunday shaxslardan biridir. U o‘z davrining shunchaki jadidi emas. U – o‘z xalqining kelajagini oldindan ko‘ra olgan vizioner,

zamonasidan erta tug‘ilgan, ammo xalqini uyg‘otishga bel bog‘lagan jasur ruh egasi edi. Ushbu maqolada Fitratni an’anaviy tavsiflar bilan emas, balki fikr muhandisi, ong dizayneri sifatida tahlil qilishga urinamiz.

**Asosiy qism.** Fitrat yozuvchi emas, tafakkur tizimining quruvchisi. Mustamlakaga qarshi fikr qurolini ko‘targan bu qahramonning asarlarini tahlil qilishda faqat voqealar zanjiri, sujet yoki g‘oya yetarli emas. Uning matnlarida ikki qatlam mavjud: biri yuzaki – ma’rifat, jaholat, taraqqiyot, ikkinchisi esa chuqur – milliy o‘zlikning ongda shakllanishi. “Munozara” (“Hindistonda bir farangi ila buxoroli bir mudarrisning jadid maktablari xususida qilg‘on munozarsi”) asarini olaylik: bu oddiy bahs emas. Bu, aslida, xalq ichidagi ikki qarama-qarshi dunyoqarash – eski ong va yangi tafakkur to‘qnashuvidir. Fitrat esa bu to‘qnashuvga hakam emas, boshlovchi sifatida kiradi. Bu kichik hajmdagi publitsistik dialog ikki obraz – yangi usul tarafdori va eski maktab tarafdori o‘rtasidagi bahs orqali xalq tafakkurida islohotga ehtiyoj borligini ko‘rsatadi. Asarda aslida ikkala obraz, ya’ni Farangi va Mudarris orqali xalq ichidagi ikki ong darajasi jonli aks etib, Buxoro amirligidagi ijtimoiy va ma’rifiy muammolar tanqidiy yondashuv bilan yoritilgan. Diniy va dunyoviy bilimga ega bo‘lgan, dunyo ko‘rgan, hattoki, musulmon dinidan xabardor bo‘lgan Farangi Mudarrisning ilmsizligi, johilligidan hayratga tushib, musulmon farzandlarining taqdiri shunday mudarrislar qo‘liga tushib qolganligidan afsuslanadi. Mudarrisning oddiy dunyoviy bilimlardan ham xabarsiz kishi ekanligini Farangining “Sizning yurtigingizda jug‘rofiyo o‘qimaylarmi?” – deb bergan savoliga mudarris: “Men bir mudarris bo‘lsam, kechalari kitob ko‘raman, kunduzlari dars aytaman. Qachon qo‘lim tegibdiki, munday hikoyat kitoblarni o‘qisam” – deb bergan javobidan ham bilish mumkin. Mudarris dunyo sivilizatsiyasidan, taraqqiyotidan xabarsiz, hatto jug‘rofiya ilmi haqida ham tasavvurga ega emas. Mudarrisning fikricha: “Hamma ilmli bo‘lishi mumkin emas. Agar hamma olim bo‘lib ketsa, boshqa ishlar egasiz qoladi.” Demak, hamma ilm bilan mashg‘ul bo‘lsa, boshqa kasblar qolib ketadi va dunyo xarob bo‘ladi. Mudarrisning javobidan anglashiladiki, Buxoro ilm ahli, hatto, Qur‘oni Karim oyatlari va Hadisi Sharif ma’nolaridan juda yiroqlashib ketgan. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) ning “Ilmni Chindan bo‘lsa ham izlang”, “Beshikdan qabrgacha ilm izlang”, “Ilm dunyoning izzati va oxiratning sharafidir” kabi hikmatlari bilan ummatlarini ilm-ma’rifatga chorlaganini ham idrok qilishga qodir emas. Madrasada 25-30 yil arab tilini o‘qib, erkin gaplasha olmaydilar, hatto biror oyat, hadisni sharhlab bera olmaydilar. Qur‘oni Karimni o‘qib, savobini faqat ota-onalarining ruhiga bag‘ishlashga o‘rganib qolishganliklarini Farangi o‘tkir mulohazalari bilan tanqid

qiladi. Aslida, “Munozara” (Hindistonda bir farangi ila buxoroli bir mudarrisning jadid maktablari xususida qilgʻon munozarasi) asaridagi qahramon Farangi obrazi “Ilm oʻrgatmaydurgʻon maktab, maktab emas – doʻzaxdir”, – deya taʼkidlagan haqiqiy maʼrifatparvar Fitratning oʻzidir!

Zamonasining aksariyat ziyolilari hali “savodsizlikni tugatish kerak” degan paytda sharq vizioneri boʻlgan Fitrat allaqachon “fikr erkinligi, tanqidiy tafakkur, milliy tilni kuchaytirish” haqida yozgan edi. U xalqni oʻqitishdan koʻra, xalqni oʻylashga oʻrgatish kerakligini anglagan. Uning 1919-yilda yozilgan “Sayha” asarida esa xalqqa murojaati aslida ogʻriqli haqiqatni aytish jasoratidir:

“Ey xalq, sen uxlayapsan, ammo vaqt uygʻoq!”

Bu Fitrat uchun oddiy tanbeh emas – bu bir fikriy qoʻngʻiroq. U uygʻonishni bilimsizlikdan emas, ongdagi qaramlikdan boshlaydi. Siyosiy-falsafiy janrdagi bu asarning asosiy maqsadi xalqni jaholat, sustkashlik, mustamlakachilik va diniy qoloqlikdan ogoh qilish uchun “ruhiy qichqiriq” tashlaydi. Maʼrifatparvar “Sayha”sida “Bu millat oʻz holiga yigʻlamasa, nega biz yigʻlamaylik?!... degan soʻzlari orqali xalqning beparvoligi, jaholatda qolayotganligini tanqid qilsa, “...U uygʻonmasa, biz uygʻotaylik” jumlasini bilan agar xalq oʻzini oʻzi qutqara olmayotgan boʻlsa, ziyo egalari-ziyolilar, yozuvchilar, fikr odamlari bunga befarq boʻlmasin, ular xalqni uygʻotish uchun kurashsin mazmunda mushohada yuritadi.

Shuningdek, Fitratning tilga boʻlgan munosabati – faqat grammatik masala emas. U uchun til – bu millatning ruhiy asosi. Fitrat arab tili, fors tili va turkiy tillar orasidagi uygʻunlik, qarama-qarshilik, tazodlar haqida chuqur ilmiy tahlil qilgan. Ammo uning chin dardi shunda edi: xalq oʻz tilini oʻqiy olmasligi – bu millat oʻzini anglamasligidir. Shu bois u soddalashgan, xalqchil adabiy til tarafdori boʻldi.

Fitratning boshqa jihati – u madaniyatni “koʻngil bezagi” emas, balki “milliy ong ustaxonasi” deb bilgan. U tarixga emas, tarixdagi gʻururga, oʻtmishga emas, oʻtmishdagi oʻzlikka urgʻu bergan. Bu fikrlar bugun ham dolzarb.

Haqiqat izlagan qalb hech qachon tinch yashamaydi, deganlaridek Fitrat qalbida ham, hayotida ham orom boʻlmagan. Nafaqat siyosiy taʼqib, balki ichki notinchlik, xalqining ogʻir taqdiri, koʻnglidagi ideal jamiyat bilan haqiqat orasidagi fojia – bular uning ichki faryodini yuzaga chiqargan. U siyosiy maydonda Turkiston Muxtoriyatini qoʻllab-quvvatladi, ammo shunday erkin jamiyat boʻlishiga oʻzi umrida guvoh boʻlmadi. 1938-yil qatagʻoni Fitratni jismonan yoʻq qilgan boʻlishi mumkin, ammo u yaratgan fikr inshooti bugun ham mavjud. U hayotida eng koʻp ishlatgan soʻz “intiboh”, yaʼni uygʻonish boʻldi. Uygʻonish esa faqat tan bilan emas, ong bilan boʻladi.

**Xulosa.** Fitratni o‘rganish – bu tarixni o‘rganish bo‘libgina qolmay, bu – o‘z fikr-dunyoqarashimizni, ongimizni, milliy o‘zligimizni qayta ko‘rib chiqishdir. Bugungi yosh ziyolilar uchun Fitrat shunchaki o‘tmish namunasi emas. U – fikr startapini boshlab bergan, xalq tafakkuriga kod yozgan va bizni fikrda mustaqil bo‘lishga chorlagan muallimdir. Shu bilan birga, u millat oldidagi zimmasiga olgan mas‘uliyatni, orom izlamay, millat taqdiriga daxldor insonning doimiy iztirobini namoyish etdi. Fitratning fikrlari va ijodi bugungi kunda ham milliy ma‘naviyatimizni, madaniy taraqqiyotimizni rivojlantirishda muhim yo‘nalish bo‘lib qolmoqda. Uning yaratuvchanligi va qat‘iyati – har birimizga o‘z vatanimiz va xalqimiz uchun halol va fidoyi xizmat qilishga undovdir. Shunday ekan, Abdurauf Fitratni faqat tarixiy shaxs sifatida emas, balki millatimizning har doim yangi ufqlarga intilishini ta‘minlovchi ruhiy yulduz sifatida qadrlashimiz lozim. Uning yaratgan asarlari bugun ham “jim” emas. Ular har bir ziyoliga qarata shunday deydi: “O‘ylashdan qo‘rqma, uyg‘onish uchun bu yetadi”.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Boltaboyev H. Fitrat va jadidchilik. –T., A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. – 140 b.
2. Fitrat. Tanlangan asarlar. I jild. – T.: Ma‘naviyat, 2000. – 464 b.
3. Ziyodov Z. Fitratning jadidchilikdagi tutgan o‘rni // O‘zbek tili va adabiyoti. – T.: O‘zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti, 2014. – №2. – B. 38-45.
4. Karimov A. Jadid adabiyoti va Fitrat fenomeni. – T.: Fan, 2006. – 112 b.
5. Saidov S. Abdurauf Fitrat: tafakkur va matnlar tahlili // Filologiya masalalari. – T.: O‘zR FA Til va adabiyot instituti, 2020. – №4. – B. 20-28.
6. O‘roqova, Nafosat, Hayot Latipov, and Nigora Normuratova. "The role of flora and fauna in expressing the artistic view of the universe." *E3S Web of Conferences*. Vol. 587. EDP Sciences, 2024.
7. O‘roqova, N. (2019). So‘nggi yillar o‘zbek dostonchiligida ijodkor uslubi va individualligi (I. Otamurod va U. Qo‘chqor dostonlari asosida). Falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi, Qarshi, 2019. B, 21.